

QONUN IJODKORLIGI TUSHUNCHASI HAMDA MAQSAD VA VAZIFALARI

Yangiboyev Farhod Rashidovich

O'zbekiston Respublikasi IIV Surxondaryo akademik litseyi huquq fani o'qituvchisi.

93-769-95-89 Farhod.yangiboyev@list.ru<https://doi.org/10.5281/zenodo.14570447>

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot ishida, davlat hokimiyati organlari tizimida Oliy Majlis palatalari, xususan Senatning rolini kuchaytirish, davlatning ichki va tashqi siyosati bo'yicha muhim vazifalarni hal etish, ijro hokimiyati organlari faoliyatini nazorat qilishda Senatning huquq va vakolatlarini kengaytirishga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qo'yilgan vazifalar ijrosini ta'minlash masalalari ilmiy jihatdan o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Oliy Majlis, davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning huquq va erkinliklari, qonun buzilishi, normativ-huquqiy hujjatlar, huquq ijodkorligi, qonun chiqarish tashabbusi.

THE CONCEPT OF LAWMAKING AND ITS GOALS AND OBJECTIVES

Abstract. In this research work, the issues of strengthening the role of the chambers of the Oliy Majlis, in particular the Senate, in the system of state authorities, solving important tasks in the domestic and foreign policy of the state, ensuring the implementation of the tasks set by the President of the Republic of Uzbekistan to expand the rights and powers of the Senate in controlling the activities of executive authorities are scientifically studied.

Keywords: Oliy Majlis, state authorities, rights and freedoms of citizens, violation of the law, regulatory legal acts, lawmaking, legislative initiative.

ПОНЯТИЕ ПРАВОТВОРЧЕСТВА, ЕГО ЦЕЛИ И ЗАДАЧИ.

Аннотация. В данной исследовательской работе усиление роли палат Олий Мажлиса, особенно Сената, в системе органов государственной власти, решение важных задач во внутренней и внешней политике государства, расширение прав и полномочий Сената в сфере контроля. Деятельность органов исполнительной власти одобрена Президентом Республики Узбекистан. Вопросы обеспечения выполнения возложенных задач научно изучены.

Ключевые слова: Олий Мажлис, органы государственной власти, права и свободы граждан, нарушение закона, нормативные правовые документы, правотворчество, правотворческая инициатива.

Jamiyatda fuqarolarning huquq va erkinliklarini taminlash uchun qonunlar xalqning manfaatini aks ettirishi hamda adolatlilikni taminlashi lozim. Bu esa o'z-o'zidan qonunlarning sifati bo'lishini talab qiladi.

Shu sababdan ham qonun qabul qilinishida boshqa normativ-huquqiy hujjatlardan farqli o'laroq, bir nechta bosqichlardan o'tadi. Bulardan ko'zlangan maqsad qonunni eng yaxshi holatda jamiyatga tatbiq etish hisoblanadi.

Davlat organlari bilan bir qatorda fuqarolar ham qonun qabul qilinishi jarayonida o'zini munosabatini bildiradi olishi lozim. Buyuk yunon faylasufi Aflotun shunday degan edi: "Xalq qonunlarga ehtiyoj sezib, ularni puxta o'rgansa, bu faqat uning o'ziga foyda keltiradi. Aks holda qonundan ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi". Haqiqatdan ham, xalqimiz qonun buzilishiga qarshi qattiq turmas ekan, davlat idoralari, mansabdor shaxslar qanchalik urinmasin, qonun ustuvorligini taminlash qiyin bo'ladi¹.

Qonun ijodkorligi faoliyati o'zining mas'uliyatliligi va murakkabligi bilan huquq ijodkorligining boshqa turlaridan farq qiladi. Qonun kuchga kirgach u muayyan ijtimoiy munosabatlar tartibga solishda qat'iy kuchga aylanadi. Bu jarayon muntazam va muvofiqlashtirilgan ketma-ketlikda ro'y beruvchi bosqichlarning yig'indisi sifatida namoyon bo'ladigan muayyan huquqiy mexanizmdir². Qonun chiqarish funksiyasini amalga oshirish parlament, parlament palatalarining asosiy vazifasi hisoblanadi. Hokimiyatni taqsimlash prinsipi shuni nazarda tutadiki, jamiyat barcha ijtimoiy tabaqalarining manfaatlarini, butun millat manfaatlarini to'liq ifoda etuvchi qonunchilik hokimiyati organi boshqa davlat organlari tomonidan chiqariladigan boshqa huquqiy hujjatlarga nisbatan kattaroq yuridik kuchga ega bo'lgan normativ- huquqiy hujjatlarni qabul qilishlari lozim. Aynan parlament tomonidan qabul qilinuvchi qonunlar boshqa barcha davlat organlari uchun zaruriy huquqiy negizni vujudga keltiradi, mazkur organlarning o'zaro hamda fuqarolar va ularning birlashmalari bilan munosabatlarini belgilab beradi.

Professor X.T.Odilqoriev fikricha, qonun ijodkorligi jarayoni davlat oliy vakillik organining konstitutsiyada belgilangan tartibda yangi qonunlarni yaratishga, amaldagi qonunlarga qo'shimcha va o'zgartirish kiritishga qaratilgan, shuningdek eskirgan qonunlarni bekor qilish borasidagi harakatlari yig'indisi bo'lib, u qonun bilan tartibga solinishi zarur bo'lgan munosabatlarni aniqlash, qonun loyihasini tayyorlash, uni muhokama etish va qabul qilishni o'z ichiga oladi³. Yuqoridagi fikrlarga qo'shilgan holda qonun ijodkorligi jarayoni to'g'ri tashkil etilishi demokratik va adolatli fuqarolik jamiyatini qurish uchun asos deb hisoblaymiz.

O'zbekiston Respublikasida qonunchilik jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat:

- Qonunchilik tashabbusi;
- Qonun loyihalarini ko'rib chiqishga qabul qilish va loyihani muhokama qilish;

¹ Mirziyoev Sh. Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari. - T., O'zbekiston. 2020. 108-b.

² Najimov M.K. Norma ijodkorligi. - Toshkent, 2018. – 23 b.

³ X.T.Odilqoriev. Davlat va huquq nazariyasi. – T., 2018. 224-b.

- Qonunlarni qabul qilish va maqullash;
- Qonunlarni imzolash va elon qilish.

Qonunchilik jarayonining ilk bosqichi hisoblangan qonunchilik tashabbusi - bu muayyan organlar va mansabdor shaxslarning qonunlar chiqarish masalasini qo'yish va ularning loyihalarini ko'rib chiqish uchun qonun chiqaruvchi organga taqdim etish huquqidir.

Qonun chiqarish tashabbusi – qonun chiqarish jarayonining ilk bosqichi. Bu jarayon qizg'in sa'y-harakatlarga asoslanadi, ular natijasida qonun chiqaruvchi organga qonunchilik yuzasidan tegishli takliflar kiritiladi, parlament esa o'sha takliflar asosida yangi qonun chiqarish, amaldagisini o'zgartirish yoki bekor qilish to'g'risidagi masalalarni ko'rib chiqishga qabul qiladi⁴. "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi qonunning 27-moddasiga muvofiq, Qonunchilik palatasida qonunchilik tashabbusi huquqiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, o'z davlat hokimiyatining oliy organi orqali Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qonunchilik palatasi deputatlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi, Bosh prokurori egadirlar va bu huquq qonunchilik tashabbusi huquqi subektlari tomonidan qonun loyihasini Qonunchilik palatasiga kiritish orqali amalga oshiriladi.

Qonun loyihasini ishlab chiqish va muhokama etish qonun yaratish jarayonining alohida va muhim bosqichidir. Bu bosqich qonun chiqaruvchi organga qonun loyihasi taqdim etilgach va u sessiya kun tartibiga kirgandan so'ng boshlanadi. Shakllangan tajribaga ko'ra qonun loyihasi 2 xil ko'rinishda muhokama qilinadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 9-moddasiga muvofiq "Jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari xalq muhokamasiga taqdim etiladi, umumiy ovozga (referendumga) qo'yiladi".

Umumxalq muhokamasini amalga oshirishning protsessual, tashkiliy jihatlari O'zbekiston Respublikasining "Qonun loyihalarining umumxalq muhokamasi to'g'risida"gi Qonunida o'z ifodasini topgan.

Ikkinchi xolda, qonun loyihasi O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik Palatasiga kiritiladi va unda muhokama etiladi. 2021-yil 20-aprelda qabul qilingan O'RQ 682-sonli "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi qonunning 21-moddasiga uchinchi qismiga muvofiq, normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiquvchi tomonidan tayyorlash hamda tegishincha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritish muddati, agar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlarida, O'zbekiston Respublikasi Oliy

⁴ M.K.Najimov. Norma ijodkorligi. - T., 2018. 24-b.

Majlisi palatalarining qarorlari va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining hujjatlarida boshqa muddat belgilanmagan bo'lsa, ikki oydan kam etib belgilanishi mumkin emas.

Mamlakatimizda huquqiy jarayonlar va o'zgarishlarga jamoatchilikning nazorati munosabati yildan yilga ijobiy tomonga o'sib bormoqda. Buni normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi misolida ham ko'rishimiz mumkin. "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi qonunning 24-moddasiga muvofiq, ishlab chiquvchi tomonidan normativ-huquqiy hujjatlarning loyihalari normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portalida jamoatchilik muhokamasini o'tkazish uchun qonunchilikda belgilangan tartibda joylashtiriladi.

Yuqoridagi qoidalarini qonun loyihalarini ishlab chiqishga joriy etilganini amaliyot misolida ko'rish mumkin. Buni 2021-yil 20-aprelda qabul qilingan O'RQ 682-sonli "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida" gi qonun misolida ko'rib chiqamiz. Malumki, qonun loyihasi Qonunchilik palatasiga qonunchilik tashabbusi huquqi subektlari tomonidan kiritiladi. Ushbu qonun loyihasi Adliya vazirligi tomonidan 2019-yil 28-dekabrda normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portalida regulation.gov.uz ga muhokamaga chiqarilib, shu yilning 15-martida muhokama yakunlangan.

Tayyorlangan qonun loyihasi Qonunchilik palatasiga Adliya vazirligining huquqiy ekspertiza yakunlari bo'yicha xulosasi va tushuntirish xati bilan kiritiladi.

Qonun loyihasi Qonunchilik palatasiga kiritish mobaynida quyidagilarni taqdim etgan:

- qonun loyihasiga uning konsepsiyasi bayon qilingan tushuntirish xati, ushbu konsepsiyada huquqiy jihatdan tartibga solishning asosiy g'oyasi, maqsadi va predmeti; tegishli ijtimoiy munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solishning mazkur sohada amalda bo'lgan qonunlar hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlar tahlili ilova qilingan holdagi umumiy tavsifi va holatiga berilgan baho; qonun loyihasini ishlab chiqish zaruriyati asoslari; qonun loyihasining asosiy qoidalari; bo'lg'usi qonunning ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va boshqa oqibatlari prognozi belgilab berilgan bo'lishi kerak;

- o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi, shuningdek qonun loyihasi kiritilishi bilan bog'liq qonunlarni o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risidagi qonun loyihasi – o'zgartirilishi, qo'shimchalar kiritilishi, o'z kuchini yo'qotgan deb topilishi yoki qabul qilinishi lozim bo'lgan qonunosti hujjatlarining ro'yxati;

- xalqaro hujjatlarning va chet el mamlakatlari qonun hujjatlarining, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarining tegishli qoidalari, O'zbekiston Respublikasi sharoitida tegishli xalqaro tajriba qo'llanilishining maqbulligi to'g'risidagi asosli takliflar ketma-ket tartibda ko'rsatilgan tahliliy qiyosiy jadval;

- moddiy xarajatlarni talab qiladigan qonun loyihalari uchun moliyaviy-iqtisodiy asoslar

– davlat daromadlarini kamaytirish yoki davlat xarajatlarini ko‘paytirish, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti moddalari bo‘yicha o‘zgartirishlarni nazarda tutuvchi qonunlarning loyihalari yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining xulosasi⁵.

Yuqoridagilarni umumlashtirib holda shuni aytishimiz mumkinki, demokratiya rivojlanishini ko‘rsatuvchi belgilardan biri qonunlarga rioya etish hisoblanadi. Jamiyatda qonuniyligni taminlash uchun qonunlar har tomonlama puxta va kamchiliklarsiz bo‘lishi lozim.

Qonunni qabul qilish bir nechta bosqichlardan o‘tadi. Bundan ko‘zlangan maqsad esa qonunni mukammal holatda qabul qilish hisoblanadi.

Amaldagi qonunlarimizni tahlil shuni ko‘rsatadiki, bazi qonunlar nihoyat darajada umumiy ko‘rinishda bo‘lib, qo‘sha-qo‘sha ijroiya va idoraviy huquqiy hujjatlarni tirkamay turib ularni hayotga joriy etib bo‘lmaydi. Boshqa bir qonunlar esa meyoridan ziyod maydalashtirilgan bo‘lib, aslida hukumat qarori yoki vazirlik yo‘riqnomasiga o‘xshab ketadi⁶. Qonunlar normativ ahamiyat kasb etishi lozim, shundagina jamiyatda tartib-intizom va barqarorlik taminlanadi. Qonun jamiyatda adolatni taminlashi uchun demokratik asosda puxta yaratilishi lozim.

REFERENCES

1. Mirziyoev Sh. Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari. - T., O‘zbekiston. 2020. 108-b.
2. Najimov M.K. Norma ijodkorligi. - Toshkent, 2018. – 23 b.
3. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2022-y., 41-son, 406-modda.
4. Odilqoriev.X.T.O‘zbekiston Respublikasida qonun chiqarish jarayoni. - T., 2023. - B.29-30
5. X.T.Odilqoriev. Davlat va huquq nazariyasi. – T., 2018. 224-b.
6. M.K.Najimov. Norma ijodkorligi. - T., 2018. 24-b.

⁵ O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2006-y., 41-son, 406-modda.

⁶ Odilqoriev.X.T.O‘zbekiston Respublikasida qonun chiqarish jarayoni. - T., 1995. - B.29-30.